Ma'murova Farangiz Ne'matovna	
Grafik organayzer tushunchasining mohiyati va uning turlari	1315
Nabijanov Yusufjon Inomiddin o'g'li	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishning ilmiy metodik asoslari.....	1319
Xidirova Gavhar Babaqul qizi	
Pedagogik nizo va stress holatlarida o'qituvchining o'zini boshqarish malakasini shakllantirish	1322
Razzakova Dilnoza Akramovna	
Kompyuter grafikasi darslarida loyihaviy yondashuvni amalga oshirishning metodik asoslari.....	1326
Nazarova Shahnoza Shokirovna	
Kichik yoshdagi o'quvchilarda universal ta'limiy faoliyatlarni shakllantirish nazariyasi.....	1330
Abdullayev A'zimjon Abduvali o'g'li	
ART pedagogikaning tarixi va kelib chiqishi	1335
M. K. Abulova	
Dasturiy-didaktik ta'minot asosida talabalarining kiberpedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	1338
Bekchonova Shoira Bazarbayevna	
Bo'lajak pedagoglarning fasilitatsion kompetentligini raqamli texnologiyalar vositasida rivojlantirish mexanizmi	1342
Eshmatova Go'zaloy Ziyoyidin qizi	
Mashqalali o'qitiladigan qaraqalpaq adbiyoti saba'ida qollanilgan abzalliklari	1346
Jaksimova Urziya Jumabaevna	
Forming Primary-School Teachers' Creative Pedagogical Culture Through Professional Reflection.....	1349
Komiljonova Dilyoraxon	
Professional ta'limda o'quvchilarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy-metodik asoslari (fizika ta'limi misolida).....	1352
Kosimova Yanglish Baxtiyorovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishda ertak terapiyasidan foydalanish	1355
Mamataliyeva Mahbuba Abduvoris qizi	
Oliy ta'lim muassasalarida imkoniyati cheklangan talabalarni ijtimoiy moslashtirish tizimini takomillashtirishning nazariy-pedagogik asoslari	1358
Nazarova Zarrina Allaberdiyevna	
Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalari asosida pedagogik loyihalashtirish	1361
Polvonova Yulduzxon Saparboyevna	
SMART texnologiyalar asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy mahoratini shakllantirish modeli	1364
Qipchaqova Yorqinoy Hamidjonovna	
Talabalarda emotsional intellekti boshqarishning ijtimoiy-psixologik usullari.....	1368
Rustamova Barno Abduxalilovna	



Nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalariga chet tili o'qitish jarayonida pragmatik kompetensiyani rivojlantirish xususiyatlari.....	1371
Sadirova Dinara Sadikovna	
The Effectiveness of Project-Based Collaborative Learning in Improving English Speaking Skills of High School Students.....	1378
Salikhova N. I., Izzetullah Zeki	
Jadidlarning pedagogik merosi va zamonaviy ta'limda akmeologik yondashuv integratsiyasi.....	1383
Shodiyeva Nasiba Rustamovna	
Serebral falajli bolalar uchun xavfsiz muhit yaratish.....	1387
Shokirova Shaxnoza Dilmurodovna	
Diplomatik hujjatlar bilan ishlashning pedagogik modeli	1391
Sobirova Shahlo Jamolovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kreativ fikrlashga o'rgatishning zamonaviy usullari.....	1394
Suyarov Adham Begmuradovich	
Globalization and The Changing Role of English Teachers in Non-Native Contexts	1399
Toirova Shohida Kamolovna	
The Role of the Literary Heritage of the Timurid Era in Shaping National Identity and Spiritual Values	1402
Tokhliyeva Shafolat Rustam kizi	
Mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning mavjud ilmiy-nazariy tavsiflari	1405
Toshboyeva Saida	
Talabalarning mustaqil ish loyihasini ishlash jarayonidagi ruhiy holatlari	1408
Uzaqbaeva Venera Abatbaevna, Kubeysinova Nilufar Maxmutovna	
O'qituvchilarda mantiqiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirishning mazmuni va mexanizmlari	1412
Xursanova Zilola Mirzaxolmatovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarda ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni shakllantirish: metod va yondashuvlar	1416
Ziyayev Adxamjon	
Developing Students' Speech Skills Based on Multimodal Approach in English Teaching	1419
Bultakova Mokhinur Shuhratboy qizi	
Kreativ yondashuv asosida talabalarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning samarali yo'llari	1422
G. M. Adizova	
A Comparative Study of Linguistic and Cultural Expression in Uzbek and English Literary Discourse.....	1426
Ismoilova Shakhnoza Ilkhomovna	
Fitrat asarlarida vatanparvarlik va milliy ong masalalarining talqini.....	1429
Isomiddinov Yo'ldosh Yusubboyevich	
Bo'lajak tarbiyachilarni pedagogik mahoratni egallash jarayonini takomillashtirish.....	1433
Jabborova Marifat Qodiraliyevna	
Umumta'lim maktablarida ijtimoiy sheriklik asosida ta'lim samaradorligini oshirish mexanizmlari	1436
Kumush Xamrakulova	
Ekologik bilimlar asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiatga qadriyatli munosabatlarni shakllantirishning tarixiy asoslarini o'rganishda xorijiy tajribalar.....	1440
Mirxamidova Maftunaxon Xusanboy qizi	
O'yin nomlarining lingvomadaniy ahamiyati	1444
Matmusayeva Muhayyo Azamovna	
Umumta'lim maktablarida elektroliz jarayonini o'qitish metodikasi.....	1446
O'rinova Ozodaxon O'ljayevna, Toshtemirov Asadbek	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim tizimi pedagoglarining ekoestetik madaniyatini rivojlantirishda ekologik ta'lim-tarbiyaning o'rni	1450
Oygul Ashurova Anvarjonovna	
Inklyuziv ta'limda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar majburiyat yuklatilgan shaxslar emas.....	1453
Mo'minov Sulton Akbar o'g'li, Toshmurodova Muxabbat Nazaraliyevna	
Nogironligi bo'lgan o'smir bolalarni ota-onalari bilan hamkorlikda ijtimoiy hayotga moslashtirish samaradorligini oshirish.....	1460
Salixova Gulnoza Maxmudovna	
Talabalarning o'quv faoliyatini o'yinli texnologiyalar asosida tashkil etishning nazariy asoslari	1463
Umarov Nurbek Irkinovich	
Maxsus maktablarda eshitishda nuqsoni bor bolalar nutqini interfaol metodlar orqali rivojlantirish	1466
Teshaboyeva Feruza Raximovna	

Media to'garaklarini gospital ta'limda tashkil etishga oid xorijiy tajribalar tahlili.....	1469
Abduraximova Nozimaxon Baxadirovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining intellektual ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish tizimi.....	1475
Abduraxmonova Noila Nasim qizi	
Raqamli transformatsiyaning mohiyati, xususiyatlari va sotsiomadaniy jarayonlarga ta'siri.....	1479
Bakirov Otabek Bo'ranovich	
Ingliz tilini o'qitishda mediatexnologiya vositalarini tadbiq qilishning optimal shakl va usullari.....	1484
Eshboyev Shoirazamatovna	
Singapur, Angliya, Rossiya va O'zbekiston o'quv dasturlarida o'qish savodxonligi yondashuvlari	1488
Eshonkulova Hilola Rajab qizi	
O'quv mashg'ulotlarini tarbiyaviy funksiyalarini amalga oshirishda uchraydigan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	1492
Fayziyeva Maftuna Ilxomovna	
Badiiy asarlarni o'rganish jarayonida bolalarni bilish ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	1496
Jaloldinova Madinaxon Xojakanovna	
Oliy harbiy ta'lim tizimida kursantlarning psixologik moslashuvi va shaxsiy shakllanishining psixologik omillari.....	1499
Kushbayev Sardor Kenjabayevich	
Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarning so'zlashuv nutqini rivojlantirishning samarali usullari	1502
Lola Ibragimova	
Bo'lajak iqtisodchi mutaxassislar uchun mustaqil ta'limni tashkil etish modeli	1506
Muqimova Zulxumor Ziyatoliyevna	
4K modeli asosida darslarni tashkil etish.....	1511
Nazarova Mavluda Uktamovna	
Ota-onalarning bolalar tarbiyasidagi mas'uliyatini oshirishda pedagogik targ'ibotning o'рни.....	1514
Ochilova Dilrabo Ibragimovna	
Tasviriy faoliyat vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning kombinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish ..	1517
Raxmatova Gulobod Tuyboy qizi	
Muhandislik ta'limida texnologik tafakkurni rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari	1520
Turayeva Nargiza Nasrullayevna	
Logistik tizimlarda axborot kommunikatsiya texnologiyalari fanini o'qitishda zamonaviy metodlarning o'рни va ahamiyati.....	1524
Ulug'murodova Nargiza Norovna	
Experimental Justification and Evaluation of the Effectiveness of a Gymnastics Exercise Complex Based on a Differential Approach In The Prevention of Metabolic Syndrome and Overweight In Women of Reproductive Age.....	1528
Urazova Muborak Yuldosheva	
PIRLS xalqaro tadqiqotida o'qituvchi omilining o'quvchilar natijasiga ta'siri.....	1532
Usmonova Yulduz Abdusaid qizi	
Когнитивные стили обучающихся как ключевой нейропсихологический компонент	1537
Эгамбердиева Фарида Октамовна	
Markaziy Osiyoda dizaynning rivojlanish istiqbollari.....	1540
Abdijalilov Abdivohid Abdihalimovich	
Bo'lajak oilaviy shifokorlarning boshqaruvchanlik kompetensiyalarini shakllantirishda didaktik imkoniyatlar	1544
Yusupova Shaxnoza Qodirjonovna, Abduvahobova Nozima Rahmanovna	
Oliy ta'lim sifatining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga ta'siri	1549
Alimova Mavluda Shuxratbekovna	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy malakalarini takomillashtirish metodikasi (filologiya va tillarni o'qitish: ingliz tili yo'nalishi misolida)	1553
Axadova Shaxnoza Odiljonovna	
Algorithmic Filtering and Social Polarization	1556
Azizova Shodiya Utkur kizi	
Malaka oshirish jarayonida pedagoglarning huquqiy madaniyatni rivojlantirish metodlari	1560
Boymirzayeva Raximaxon Xoshimjonovna	



Globalashuv sharoitida oilaning an'anaviy qadriyatlari va zamonaviy tendensiyalari nisbati	1565
<i>Ergashova Guljahon Akmal qizi</i>	
Turli yoshdagi maktabgacha yoshdagi bolalarda (5–6 va 6–7 yosh) kognitiv rivojlanishni tashkil etishda o'yin turlarini tanlashning pedagogik asoslari	1569
<i>Fozilova Odina Nabiyeвна</i>	
Tibbiy ta'lim talabalarining amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishda interaktiv simulyatorlardan foydalanishning nazariy asoslari.....	1572
<i>Abdullajanov Baxrom Rustamjanovich, Yakubbekova Mavluda Kozimjonovna, Isakov Qobiljon Komiljon o'g'li</i>	
Fitrat asarlarida vatanparvarlik va milliy ong masalalarining talqini.....	1576
<i>Isomiddinov Yo'ldosh Yusubboyevich</i>	
“Temurbeklar maktabi” o'quvchilarining mustaqil ishlash kompetensiyalarini elektron ta'lim resurslari vositasida rivojlantirishning samaradorlik darajasi.....	1580
<i>Jumayev Javlonbek Abduqahhor o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilida og'zaki nutqini qo'shiqlar orqali shakllantirishning psixolingvistik masalalari.....	1585
<i>Karimova Dilyora Raximjon qizi</i>	
Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashni pedagogik loyihalashtirishda reflektiv yondashuvi turlari	1589
<i>Nurmanov Alisher Shaymardonovich</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qtuvchilarni raqamli texnologiyalar vositasida kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonlarini takomillastirish.....	1591
<i>Sh. A. Abdullayev</i>	
Tibbiy ta'limda talabalar kognitiv tafakkurini rivojlantirish texnologiyalarining nazariy-metodik asoslari.....	1594
<i>Abdullajanov Baxrom Rustamjanovich, Supichakov Xondamir Xamidovich, Yusupova Shaxnoza Kadirjanovna, Isakov Qobiljon Komiljon o'g'li</i>	
O'quvchilarda ingliz tilidagi lingvistik kompetensiyani shakllantirishda tizimli yondashuvning roli.....	1598
<i>Tojiyeva Anora Baxtiyorovna</i>	
Inklyuziv ta'lim tushunchasi va rivojlanish bosqichlari	1602
<i>Toshboltayeva Malohatoy Valijon qizi</i>	
Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish	1605
<i>Turobova Nilufar Umedullayevna</i>	
Bo'lajak pedagoglarda fasilitatorlik sifatlarini rivojlantirishning samaradorligi.....	1610
<i>Xamidova Sabrina Abduvahob qizi</i>	
Tibbiy ta'limda interaktiv simulyatorlardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari.....	1615
<i>Abdullajanov Baxrom Rustamjanovich, Yakubbekova Mavluda Kozimjonovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning dialogik nutqini o'stirishda kompyuter o'yinlarining o'rni	1620
<i>Yalgasheva Zilola Haziratkul qizi</i>	
O'quvchilarda kreativlik ko'nikmalarini shakllantirish	1624
<i>Yuvashov Sherzod Ulmasovich</i>	
Формирование лингвокультурной компетенции студентов-филологов в процессе изучения русского языка как неродного	1628
<i>Имомалиев Шукурулло Шухратович</i>	
“Time Management” tushunchasi va oliy ta'lim muassasalari talabalarining o'quv yutuqlari o'rtasidagi bog'liqlik	1631
<i>Sirojova Nafisa Isomiddin qizi</i>	
Oilaviy shifokorlarni tayyorlashda boshqaruvchanlik kompetensiyalarini rivojlantirish: mazmuni va turlari ..	1635
<i>Yusupova Shahnosa Qodirjanovna, Abduvahobova Nozima Rahmonovna</i>	
Birlamchi sogliqni saqlash tizimida oilaviy shifokorni tayyorlashda an'anaviy institutsional yondashuv (adabiyotlar sharhi).....	1639
<i>Abduvaxobova Nozima Raxmanovna, Yusupova Shaxnoza Qodirjanovna</i>	
Oila shifokorining tibbiy faoliyatining kommunikativ asoslarini rivojlantirish	1643
<i>Yusupova Shaxnoza Kadirjanovna, Abduvahobova Nozima Rahmanovna</i>	
Oilaviy shifokorlarni tayyorlashda boshqaruv kompetensiyalarini shakllantirish (adabiyotlar sharhi).....	1652
<i>Yusupova Shaxnoza Qodirjanovna, Abduvaxobova Nozima Rahmonovna</i>	
Dyuzdo sportining xalqaro maydondagi rivojlanish istiqbollari va o'zbekiston tajribasi	1657
<i>Tangriyev Abdullo Tovashovich</i>	
Challenges in Organizing Scientific Research Activities of Future Educators	1666
<i>Abdullaeva Ozoda Odiljon kizi</i>	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda ijtimoiy xulq-atvor va ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi	1670
<i>Abduvaxobova Nodira Abdusalam qizi</i>	

O'zbekistonda yoshlarni ijtimoiy-pedagogik hamkorlikda tarbiyalash ustuvor masala sifatida	1674
<i>Abirova Umida Nazarovna</i>	
Reflektiv yondashuv asosida xorijiy til ta'limida metakognitiv kompetensiyani shakllantirishning pedagogik mexanizmlari	1678
<i>Alimov Jamshid Ravshanovich</i>	
O'zbek folklor raqs san'ati motivlari asosida talabalarning madaniy kompetentligini rivojlantirish metodikasi	1683
<i>Asror Allayarov</i>	
Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar nutq madaniyatiga ta'siri (global tajribalar va O'zbekiston misolida tahlil) ...	1687
<i>Azimjonova Shahnoza Dilshodbek qizi, Xoldarov Bexruzbek Mansurbek o'g'li</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda dizartriyaning namoyon bo'lish darajalari	1691
<i>Berdibekova Zilola Sherzod qizi</i>	
Sotsial-pedagogik tamoyillar asosida talabalarni axborot addiksiyasidan himoyalash nazariyasi	1696
<i>Djumayeva Xulkarxon Muhammadjonovna</i>	
O'quvchilarning STEM fanlariga qiziqishini oshirish uchun samarali o'qitish metodlari.....	1700
<i>Eranova Aziza Axmamat qizi, Djumayev Axmamat Shermamatovich, Shodiyeva Nazira Qudratovna</i>	
Dizartriya bolalarda nutq va harakat jarayonlarini o'rganish va neyropsixologik yondashuv asosida korreksiyalash	1705
<i>Gapurova Dilnoza Tajibayevna, Odilova Sevara Bahriddin qizi</i>	
Duduqlanuvchi bolalarda nafas funksiyasi va nutqiy nafasni rivojlantirish	1708
<i>Isamova Gulchexrabonu Marvar qizi</i>	
Bo'lajak pedagoglarda informatsion dunyoqarashni takomillashtirish metodikasi.....	1713
<i>Jumayev Umidjon G'ofir o'g'li</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda san'at asarlarini idrok etish kompetensiyalarini rivojlantirish.....	1718
<i>Kadirova Zarina</i>	
Abdulla Avloniy asarlarini o'qitishda interfaol ta'lim texnologiyalari va lingvokulturologik kompetensiyani rivojlantirish imkoniyatlari	1721
<i>Karaxodjayeva Maxfuza Xamidullaevna</i>	
O'smirlarda agressiv xulq-atvorni psixokorreksiyalash dasturining samaradorligi tahlili	1726
<i>M. I. Kushanova</i>	
Maktabgacha yoshdagi yengil dizartriya bolalar lug'at boyligini innovatseon texnologiyalar vositasida rivojlantirish	1731
<i>Mamatova Aziza Bo'riboyevna, Xayrulloeva Marjona Tuychi qizi</i>	
Pedagogik ta'lim sohasida ta'lim sifatini takomillashtirish masalalari	1734
<i>Mirzayeva Faroxat Odiljonovna, Komilova Ziroat Murodjon qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'limda fanlararo integratsiyaning nazariy-konseptual asoslari	1737
<i>Mustafokulova Durdona</i>	
Baqtriya va Marg'iyo muhr va tumorlarida ifodalangan tasvirlarning tasniflanishi	1740
<i>Norxamidova Muattar Zavqiddin qizi</i>	
15-16 yoshli kurashchilarni mashg'ulot yuklamalarini samarali rejalashtirish.....	1745
<i>O. E. Toshmurodov, S. E. Shomurodov</i>	
Pedagogika sohasiga oid maktablarda ingliz tili fanini o'qitish usullari.....	1753
<i>Ochilova Laylo Rajabovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning emotsional-ir0daviy sifatlarini tarkib toptirishda xorij tajribasi	1757
<i>Quldosheva Shahlo Ibragim qizi</i>	
Shaxsda emotsional zo'riqishni bartaraf etishning psixologik mexanizmlari	1763
<i>Quyliyeva Orzigul Rajabboyevna</i>	
O'smir qizlarda ma'naviy dunyoqarashining shakllanganligini belgilaydigan mezonlar.....	1766
<i>Rajapov Vahobjon To'rajanovich</i>	
Frazeologizmlarning uslubiy tasnifini belgilash masalasi	1770
<i>Rashidova Umida Mansurovna</i>	
Yosh kurashchilarning chidamkorligini rivojlantirish muammolari.....	1774
<i>S. E. Shomurodov</i>	
Boshlang'ich ta'limda millatlararo muloqot ko'nikmalarini axloqiy kontentlar asosida shakllantirishda pedagogik texnologiyalar.....	1779
<i>Sanakulova Sarviniso Xamrakulovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari orasida refleksiv ta'lim muhitini yaratish uchun pedagogik sharoitlar va vositalar	1783
<i>Shukrullayeva Sarbinaz Alliyar qizi</i>	



Gender farqlarni hisobga olgan holda o'quv-tarbiyaviy jarayonida maktab o'quvchilarining shaxsida axloqiy qarashlarini shakllantirish.....	1787
Umirova Gulnoza Zakirbayevna	
Xorijiy til o'qitish metodikasining tarixiy genezisi va rivojlanish bosqichlari	1790
Usmonxodjayeva Moxiraxon Abdumalikxodjayevna	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida badiiy va estetik tafakkur orqali ta'lim berish ko'nikmasini rivojlantirish.....	1797
Vaxabova Gulshan Vafoqul qizi	
Yoshlar estetik madaniyatiga ma'naviy-mafkuraviy yondashuv.....	1801
Xalilova Charosxon Omonboy qizi	
Духовные основы педагогического мастерства в трудах русских и узбекских педагогов-гуманистов	1805
Костишина К., Рустам-Валиева Г., Рахимова М., Утегенова Г.	
maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarini inklyuziv faoliyatga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik zarurati.....	1811
Umarova Zuxra Madyrbekovna	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirish usullari	1814
Sheraliyeva Guzal Elibayevna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida tanqidiy va kreativ fikrlashni shakllantirishning samarali pedagogik usullari	1818
Mamasoliyeva Shirinoy Sirojiddin qizi	
Ona tili va adabiyot fanini o'qitishda "Debat" va "Aqliy hujum" texnologiyalarining lingvopedagogik samaradorligi.....	1822
Nafasova Yulduz Shuxratovna	
Fizika darslarida muammoli o'qitish texnologiyasi orqali o'quvchilarda ichki motivatsiyani shakllantirish ...	1825
A. B. Kamalov, I. Jumaniyazova	
Zamonaviy multimedia texnologiyalari va uning ta'lim jarayonidagi o'rni	1829
Shirinov Feruzjon Shuxratovich, Qosimova Mohira Botirali qizi	
Цели и задачи когнитивной педагогики.....	1832
Инагамова Нодира Абдусаматовна	
Boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'quvchilarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari	1835
Tengelova Dilfuza Urazali qizi	
Oilaviy shifokorlarni tayyorlashda boshqaruvchanlik kompetensiyalarini shakllantirish metodikasi bo'yicha tajriba-sinov ishlari natijalarining samaradorligi.....	1839
Abduvaxobova Nozima Raxmonovna, Yusupova Shaxnoza Kadirjanovna	
Learning English With Sign Language in Secondary School (Improving Communication Skills).....	1849
Nabiyeva Nodira Rustamjon qizi	
Tarixiy romanlarda milliy ruh ifodasi: Shahodat Isaxonova ijodida folklor elementlari	1854
Matmusayeva Nadira Mamirovna	
Boshlang'ich sinf darslarida kompetensiyaning ahamiyati	1858
Saidnazarova Tulganoy Maxmudovna	
Tarbiyaviy texnologiyalar yordamida o'quvchilarning ma'naviy tafakkurini rivojlantirish usullari	1861
Quvondiqova Dildora Komiljonovna	
Sog'lom turmush tarzini yaratishda jismoniy tarbiya va ommaviy sportning o'rni.....	1866
Xudoyberdiyeva Elmira Botir qizi	
Bolalikdagi muomala – kelajakdagi insoniyat.....	1869
Nasirova Z. M., Inogamova Sakina	
Sahnalashtirish faoliyati jarayonida bolalarda ijodkorlikni rivojlantirishning o'ziga xosligi	1872
Boyitova Anorxol Gulmurodovna	
Kreativ yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida tizimli fikrlash ko'nikmalarini takomillashtirish mexanizmi	1877
Ilovatdinova Dilbar Azat qizi	
Talabalarning abstrakt fikrlashini rivojlantirishning germeneytik asoslari.....	1882
Abdullayeva Nafisa Anvarovna, Azizova Rayyona Rustambek qizi	
Innovatsion faoliyatga nisbatan riskologik kompetentlikni rivojlantirish modeli va amaliyoti	1885
Kandaxarov Mirjalol Abdumurot o'g'li	

SAHNALASHTIRISH FAOLIYATI JARAYONIDA BOLALARDA IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOSLIGI

Boyitova Anorxol Gulmurodovna
Oriental universiteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim muassasalari sharoitida sahnalashtirish faoliyati orqali bolalar ijodkorligini rivojlantirishning o'ziga xos jihatlari tahlil qilinadi. Maqolada mavzuga doir nazariy manbalar sharhi berilgan hamda tajriba-sinov ishlari metodikasi yoritilgan. Tadqiqot davomida eksperimental guruh tarbiyalanuvchilari bilan muntazam sahnalashtirish mashg'ulotlari o'tkazildi, natijalar tahlili esa ularning ijodkorlik darajasi va ijodiy faolligi sezilarli oshganini ko'rsatdi. Xulosa qismida bolalar ijodkorligini rivojlantirish uchun teatr-o'yin faoliyatidan keng foydalanish bo'yicha amaliy takliflar keltiriladi.

Kalit so'zlar: ijodkorlik, sahnalashtirish faoliyati, maktabgacha ta'lim, teatr o'yini, ijodiy qobiliyatlar, ifodali nutq, rolli o'yinlar.

Abstract: This article examines the specific aspects of developing creativity in preschool children through dramatization activities in kindergarten settings. The article provides a review of relevant literature and outlines the methodology of an experimental study. During the experiment, regular dramatization sessions were conducted with children in the experimental group, and the analysis of the results showed a significant increase in their level of creativity and creative engagement. In conclusion, the article offers practical recommendations for the broad use of theatrical play activities to develop children's creativity.

Key words: creativity, dramatization, preschool education, theatrical play, creative abilities, expressive speech, role play.

Аннотация: В данной статье рассматриваются особенности развития творческих способностей у детей дошкольного возраста посредством драматизационной деятельности в условиях дошкольных образовательных учреждений. В статье представлен обзор литературы по теме, а также описана методика экспериментального исследования. В ходе эксперимента с воспитанниками экспериментальной группы регулярно проводились драматизационные занятия, анализ результатов показал значительное повышение уровня их творчества и творческой активности. В заключение статьи приведены практические предложения по широкому использованию театрализованной игровой деятельности для развития творчества детей.

Ключевые слова: творчество, драматизация, дошкольное образование, театрализованная игра, творческие способности, выразительная речь, ролевая игра.

KIRISH

Mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimining ilk bo'g'ini bo'lmish maktabgacha ta'lim sohasiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan qarorlar va dasturlar qabul qilinib, ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish choralari ko'rilmogda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 31-oktabrdagi "Maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4581-sonli¹ qarorida maktabgacha ta'lim tizimini yanada rivojlantirish vazifalari belgilangan bo'lib, bunda bolalarning intellektual hamda ijodiy rivojlanishi uchun zarur sharoitlar yaratishga alohida urg'u beriladi^[1, 1]. Maktabgacha yosh davri bolalarda ijodkorlikni shakllantirish uchun eng qulay va sezgir davr hisoblanadi. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, aynan shu davrda bola hech qachon bo'lmagan darajada turli faoliyat turlarini o'zlashtiradi, atrofda olgan taassurotlari asosida faol tasavvur qiladi va yangi obrazlar yaratishga intiladi^[2, 24]. Shu bois bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlari oldidagi muhim vaziri-

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 31-oktabrdagi "Maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4581-sonli qarori: <https://lex.uz/docs/-4719136>



falardan biri – “ijodkor bolani” tarbiyalashdan iboratdir. Bolaning ijodiy qobiliyat va tafakkurini erta yoshdanoq rivojlantirish keyinchalik uning butun hayotiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi, shaxs kamolotida muhim omil bo'lishi ko'plab tadqiqotlar tomonidan tasdiqlangan [2, 30].

Ijodkorlik tushunchasi pedagogik va psixologik adabiyotlarda keng tadqiq qilingan bo'lib, unga turli ta'riflar berilgan. Pedagogik manbalarda ijodkorlik odatda shaxsning yangilik yaratuvchi ongli va maqsadga yo'naltirilgan faoliyati sifatida izohlanadi. Masalan, “Pedagogika entsiklopediyasi”da ijodkorlikka “fan–texnika yutuqlarini tahlil qilib, ulardan o'z faoliyatida oqilona foydalana olish, doimo o'z ustida ishlashga intilish va yangilik yaratishga qaratilgan ongli faoliyat” deb ta'rif beriladi [2, 15]. Psixolog olim L. S. Vigotskiy esa ijodkorlikni insonning tasavvur qilib, yangi narsa yaratishga qodirligi bilan bog'lar ekan, “qayerda inson hayol qiladi, o'zgartiradi va yangi narsani tasavvur qilsa – asl ijod shu yerda namoyon bo'ladi”, deya ta'kidlaydi [6, 14]. Bolalar ijodi kattalarnikidan farqli o'laroq, asosan sub'ektiv yangilik bilan xarakterlanadi: bola o'z ijodiy faoliyati jarayonida o'zi uchun yangi bo'lgan kashfiyotlar qilishga moyil bo'ladi va shu tariqa atrofdagilarga o'zi haqida yangi ma'lumot beradi [6, 27]. Demak, bolalar ijodkorligining qimmatini yakuniy mahsulotning badiiy puxtaligida emas, balki bolaning ijodiy jarayon orqali o'z imkoniyatlarini kashf etishidadir.

Zamonaviy jamiyatda insonning ijodiy qobiliyatlari uning intellektual salohiyatining muhim qismi sifatida qaralmoqda. Insoniyat yaratgan barcha madaniy yutuqlar aslida ijodiy faoliyat mahsuli ekani sir emas. Kelajakda jamiyat taraqqiyoti aynan bugungi bolalarning ijodiy salohiyatiga bog'liq bo'lishini mutaxassislar alohida ta'kidlamodalar [2, 42]. Shu bois maktabgacha ta'limda an'anaviy bilim berishga yo'naltirilgan yondashuvlar bilan birga, bolalarning mustaqil tafakkuri va ijodkorligini rag'batlantiruvchi innovatsion metodlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Ta'lim jarayonida bolalarning erkin fikrlashi, noodatiy yechimlarni izlash ko'nikmasini rivojlantirish bugungi kun pedagogikasining dolzarb vazifasiga aylangan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodkorlikni shakllantirish va rivojlantirish masalalari ko'plab pedagog va psixolog olimlar tomonidan o'rganilgan. L. A. Venger, O. M. D'yachenko, T. S. Komarova, A. I. Savenkov, N. P. Sakulina, Ye. A. Flerina kabi tadqiqotchilar bolalarda erkin va mustaqil fikrlash qobiliyatini tarbiyalash, ularning noodatiy yechim topishga intilishini qo'llab-quvvatlash lozimligini ta'kidlashadi [5, 119]. O'tkazilgan ilmiy izlanishlar xulosalariga ko'ra, maktabgacha davrda ijodiy faollik unsurlari, avvalo, oddiy o'yin faoliyati shaklida namoyon bo'ladi. Bola o'yinda kattalar tomonidan belgilangan harakatlar andozasidan chetga chiqib, o'z ijodiy “topilmalarini” qo'shib borishga, turli variantlarni sinab ko'rishga intiladi [5, 121]. Bunda ayniqsa syujetli–rolli o'yinlar va teatrlashtirilgan o'yinlar bolalarning ijodiy tasavvuri va fantaziyasini o'stirishda muhim ahamiyatga ega.

Pedagogik adabiyotlarda “sahnalashtirish o'yini” (yoki teatrlashtirilgan o'yin) tushunchasi syujetli–rolli o'yinning bir ko'rinishi sifatida izohlanadi. Ba'zi manbalarda “sahnalashtirish (dramatizatsiya) o'yini” tushunchasi “teatrlashtirilgan o'yin” atamasiga sinonim sifatida qo'llansa, ayrim tadqiqotchilar dramatizatsiya o'yinini teatrlashtirilgan o'yinlar ichida alohida bir turi deb biladi [5, 130]. L. S. Furminaning ta'kidlashicha, maktabgacha yoshdagi bolalarning teatr–ijrochilik faoliyati ikki shaklda kechadi: birinchisi – predmetlar (o'yinchoqlar, qo'g'irchoqlar) yordamida sahna ko'rinishlarini namoyish etish (masalan, qo'g'irchoq teatri); ikkinchisi – bolalarning o'zlari ijrochiga aylanib, rollarni jonli ijro etishi (ya'ni rolli–syujetli dramatizatsiya o'yinlari) [5, 134]. Demak, teatrlashtirilgan o'yinlar doirasida qo'g'irchoq teatri, barmoq teatrlari, stol usti teatrlari kabi predmetli teatr o'yinlari hamda bolalar o'zlari sahnaga chiqib ijro etadigan dramatik rolli o'yinlar ajratiladi. Har ikkala holatda ham bolalar adabiy asar yoki hayotiy voqealar mazmunini o'ziga xos ifodali vositalar (intonatsiya, mimika, harakat va boshqalar) orqali sahnada gavdalandiradi.

Sahnalashtirish faoliyati, avvalo, badiiy–ijodiy faoliyat turi sifatida bola shaxsining ko'p qirrali rivojlanishiga xizmat qiladi. Tadqiqotchilar ta'kidlashicha, dramatik ijro jarayonida bolalar nutqini rivojlantirish, ularning estetik didini shakllantirish, tasavvur va tafakkurini faollashtirish kabi bir qator pedagogik vazifalarni hal etish imkoni tug'iladi [2, 36]. Xususan, sahnalashtirilgan o'yinlar bolalarda ifodali nutq ko'nikmasini rivojlantiradi, lug'at boyligini oshiradi, nutqning emotsionalligi va ta'sirchanligini kuchaytiradi [2, 38]. Shuningdek, dramatizatsiya jarayonida bola o'ziga yangi obrazni qabul qilib, uni ijro etishga harakat qilar ekan, bu uning ichki kechinmalari va his–tuyg'ularini tushunish hamda ifodalash qobiliyatini o'stiradi, ya'ni empatiya tuyg'usini rivojlantiradi [2, 47]. Sahnalashtirish faoliyati jamoa bilan birgalikda amalga oshiriladigan o'yin bo'lgani uchun, bu jarayon bolalarda ijtimoiy moslashuv va hamkorlik ko'nikmalarini ham shakllantiradi – bola tengdoshlari bilan birgalikda spektakl tayyorlash, rollarni taqsimlash va sahnada o'zaro yordam orqali jamoaviy faoliyat tajribasini orttiradi [4, 2].

Teatr o'yinlarining bolalar rivojiga ijobiy ta'siri ko'plab ilmiy–amaliy ishlar orqali isbotlangan. Xususan, Sh. T. Xasanovanning tadqiqotlarida maktabgacha tashkilotlarda sahnalashtirish mashg'ulotlari yordamida bolalarning nafaqat ijodiy tasavvuri, balki muloqotchanlik va o'zini erkin tutish qobiliyatlari ham rivojlanishi qayd etiladi [4, 3]. D. P. Bogoyavlenskiy va N. Ya. Maksimovalar kichik yoshdagi bolalarning badiiy ijodini o'rganib, ularga teatr va ijro o'yinlari kuchli ta'sir ko'rsatishini ta'kidlashgan – ayniqsa, ertak syujetlarini sahnalashti-

rish bolalarning bog'cha davridayoq nutqiy madaniyatini va ijodiy tafakkurini shakllantirishga xizmat qiladi. Mamlakatimiz olimlarining tadqiqotlari ham shuni ko'rsatadiki, agar tarbiyachi bolalarga doimiy ravishda ijodiy o'yin muhitini yaratsa, ular kichik yoshdanoq o'z "topqirlik" qobiliyatini namoyon qila boshlaydi, tengdoshlariga nisbatan fikrlashda faollik va mustaqilligi bilan ajralib turadi ^[2, 53].

Sahnalashtirish, aslida, bir nechta san'at turlarini uyg'unlashtiruvchi polixudoj faoliyat sifatida ham qaraladi. Dramatizatsiya jarayonida adabiyot (matn, ertak syujeti), teatr san'ati (aktyorlik mahorati, sahna harakati), musiqa (musical fon yoki qo'shiqlar) va hatto tasviriy san'at (dekoratsiya, niqob va atributlar tayyorlash) elementlari qo'shilishi mumkin. Bunday integratsiya bolalarning turli qobiliyatlarini bir vaqtda ishga solib, ularning kompleks rivojlanishiga imkon yaratadi ^[5, 177]. N. F. Gubanova o'z tadqiqotida aynan dramatizatsiya o'yinini bolalar ijodkorligini rivojlantirish uchun "polisan'at" imkoniyatlarga ega samarali vosita sifatida e'tirof etgan ^[5, 179]. Muallif sahnalashtirish o'yinining eng muhim funksional xususiyatlarini sanab o'tadi: sintezlilik (bir nechta san'at turlarining uyg'unlashuvi), kreativlilik (bola ijodiy faolligini talab etishi), emotsionallik (kuchli hissiy ta'sir uyg'otishi) va instrumentallik (tarbiyaviy–ta'limiy vazifalarni hal qilish quroli ekanligi) ^[5, 39].

Qo'g'irchoq teatri maktabgacha ta'limda eng ko'p qo'llaniladigan sahnalashtirish shakllaridan biridir. Qo'g'irchoqlar yordamida ertak yoki hikoyalarni jonlantirish bolalar uchun juda qiziqarli va tushunarli bo'ladi. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, qo'g'irchoq teatri orqali hatto tortinchoq bolalar ham ijroga faol qo'shilib, o'z qobiliyatlarini namoyon eta boshlaydi ^[3, 25]. M. Qodirov va S. Qodirovalarning tadqiqotida qo'g'irchoq teatrlari muntazam o'tkazish bolalarning og'zaki nutqini ravnashtirish, mimika va harakatlarini erkinlashtirish, eng muhimi – ularning ijodiy tasavvurlarini boyitishda katta samara berishi ta'kidlangan ^[3, 45]. Xullas, mavzuga oid adabiyotlar tahlilidan ko'rinadiki, sahnalashtirish (teatrlashtirish) faoliyati maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar uchun o'ziga xos tarbiyaviy vosita bo'lib, uning yordamida bolalarning ko'plab ijodiy qobiliyatlari va ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot obyekti va predmeti: Tadqiqot obyekti maktabgacha ta'lim muassasasidagi 5–6 yoshli bolalar tashkil etadi. Tadqiqot predmeti esa sahnalashtirish faoliyati jarayonida ushbu bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonidir.

Tadqiqot metodlari: Kuzatish, suhbat, pedagogik tajriba, diagnostik testlar, ijodiy topshiriqlar tahlili, solishtirma tahlil va statistik metodlar qo'llanildi. Dastlab, tajriba oldidan bolalarning ijodiy holatini baholash uchun diagnostika o'tkazildi. Bunda bolalarga ijodiy topshiriqlar (rasm chizib tugallash, predmetga noodatiy qo'llanish topish, qisqa ertakni davom ettirish kabi) berilib, ularning yechim topishdagi faolli va yangicha g'oya ishlab chiqish ko'rsatkichlari qayd etildi. Shuningdek, Torransning ijodiy fikrlash testlaridan moslashtirilgan ba'zi usullar qo'llanilib, bolalarning tasavvurining ravnoligi, fleksibiligi (moslashuvchanligi) va original fikr ilgari surish qobiliyatlari alohida kuzatildi ^[9, 18].

Tajriba ishlarida eksperimental va nazorat guruh metodidan foydalandik. Tajriba Toshkent shahridagi 32–sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida o'tkazildi. Unda 5–6 yoshli 30 nafar bola ikki guruhga (har biri 15 nafardan) bo'linib, eksperimental guruhda sahnalashtirish mashg'ulotlari maxsus dastur asosida olib borildi, nazorat guruhi esa odatiy bog'cha dasturi bo'yicha davom ettirildi. Eksperiment muddati 3 oy (2024–yil sentyabr – dekabr)ni tashkil etdi. Shu davr mobaynida eksperimental guruh tarbiyachisi haftasiga 2 marotaba maxsus teatr–o'yin mashg'ulotlari o'tkazdi. Mashg'ulotlar mazmuniga turli teatrlashtirilgan o'yin turlari – qo'g'irchoq teatri, ertak syujetlarini rollarga bo'lib ijro etish, dramatizatsiya (kichik sahna ko'rinishlari) kiritildi. Mashg'ulotlar davomida bolalar kichik jamoalarda ertaklarni sahnalashtirish, dialoglar o'rgatish, obrazlarga mos harakat va ohang topish kabi faoliyatlarga jalb qilindi. Tarbiyachi sahnalashtirish jarayonida an'anaviy "tayyor ssenariy va rolni yodlatish" usulidan ko'ra, bolalarning ijodiy tashabbusini rag'batlantirishga harakat qildi – bolalarga syujet davomiyligini o'zgartirish, dialoglarga o'z so'zlarini qo'shish, oddiy buyumlarni dekoratsiya sifatida yaratib ishlatish imkoniyatlari berildi. Bu borada T. S. Komarova ta'kidlaganidek, maktabgacha yoshdagi bolalar bilan teatrlashtirilgan faoliyatni tashkil etishda asosiy e'tiborni yakuniy natijadan ko'ra, bolalarning ijodiy jarayonda faol ishtirok etishiga qaratish lozim ^[10, 35]. Shunday yondashuv bolalarning o'zini erkin his etishi va ichki ijodiy potensialini to'liqroq namoyon etishiga yordam beradi.

Eksperiment davomida tarbiyachi va tadqiqotchi–kuzatuvchi tomonidan bolalarning faoliyatiga doimiy kuzatish olib borildi. Har bir mashg'ulotda bolalarning faolli, o'ziga ishonchi, obrazga kirish mahorati, yangi g'oyalar taklif qilish kabi jihatlar kundalikda qayd etib borildi. Bundan tashqari, eksperiment avvali va oxirida bolalarga bir qator ijodiy topshiriqlar berilib, ularning bajarilish natijalari solishtirildi. Masalan, bolalar berilgan chizma (nomukammal rasm)ni o'z tasavvurlari bilan to'ldirib rasm chizishlari, oddiy bir buyumning (masalan, g'ishtning) nechta turli xil foydalanish usulini o'ylab topishlari, "Ertakni davom ettir" o'yini orqali yarim daqiqada o'zlari yangi hikoya o'ylab topishlari so'raldi. Bu topshiriqlar orqali bolalarning g'oya yaratish tezligi va ko'pligi (fluency), fikrlarning xilma–xilligi (flexibility) hamda noyobligi (originality)ni baholashga harakat qilindi ^[9, 22].



Yig'ilgan ma'lumotlar sifat jihatidan tahlil etish bilan birga, ayrim ko'rsatkichlar bo'yicha miqdoriy solishtirish ham o'tkazildi. Natijalarni qayd etishda foiz va o'rtacha ball ko'rinishidagi ko'rsatkichlardan foydalanildi. Shuningdek, eksperiment yakunida har ikkala guruh tarbiyachilari va ota-onalardan bolalardagi o'zgarishlar haqida fikr so'rash (so'rovnoma va suhbat) o'tkazildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tajriba-sinov yakunida to'plangan ma'lumotlarni tahlil etish orqali sahnalashtirish faoliyatining bolalar ijodiy rivojiga ta'siri baholandi. Dastlab diagnostik testlar natijalari eksperimental va nazorat guruhlar uchun solishtirildi. Tajriba boshida ikki guruhning ijodiy qobiliyat ko'rsatkichlari o'zaro deyarli teng edi (masalan, "tasavvurni namoyon etish" topshirig'ida ijodiy g'oyalar soni o'rtacha 3–4 ta atrofida). Tajriba yakunida esa sezilarli tafovut kuzatildi: eksperimental guruh bolalari topshiriqlarni bajarishda ancha faol va noodatiy yondashuvlar ko'rsatishdi. Misol uchun, oddiy buyumga yangi funksiyalar topish topshirig'ida eksperimental guruh bolalari bir buyumning 8–10 xil qo'llanishini aytgan bo'lsa, nazorat guruhida bu ko'rsatkich o'rtacha 4–5 atrofida qolgan. Xuddi shunday, rasmni davom ettirib chizish mashqida eksperimental guruh bolalari juda turli va original tasvirlar yaratib, kutilmagan tafsilotlar qo'shgan bo'lsa, nazorat guruh bolalarining aksariyati an'anaviy yechimlar bilan cheklanishdi. Bu farqlar bolalarning ijodiy tasavvuri kengaygani va fantaziyasi boyiganidan dalolat beradi.

Bola nutqidagi o'zgarishlar ham kuzatildi. Sahnalashtirish mashg'ulotlari ta'sirida eksperimental guruh tarbiyalanuvchilarining ifodali nutqi sezilarli ravishda rivojlandi: ular ertak yoki hikoya so'zlab berishda ovoz chiqarish, ohang, mimika vositalaridan ko'proq va ishonchliroq foydalana boshladilar. Nazorat guruhidagi bolalarning nutqida bunday jiddiy o'zgarish kuzatilmadi. Tarbiyachi kuzatuvlari shuni ko'rsatdiki, drammatizatsiya bilan shug'ullangan bolalar suhbat davomida o'z fikrini aniqroq ifodalashga intiladi, yangi obraz va so'zlarni qo'llashdan cho'chimaydi.

Jamoaviy ijod borasida ham eksperimental guruh bolalari ijobiy o'zgarish namoyish etdi. Mashg'ulotlar avvalida birgalikda sahna qo'yishda tortinib turgan, faqat tarbiyachi yo'nalish bergandagina harakat qilgan bolalar bir necha haftadan so'ng o'zlari tashabbus ko'rsata boshlashdi. Masalan, eksperimental guruh bolalari guruhlariga bo'linib kichik spektakl tayyorlash vazifasini katta ishtiyoq bilan qabul qilib, mustaqil ravishda ertak syujetini bo'lishib olishdi, rollarga mos so'z va harakatlarni o'ylab topishdi. Ular orasida liderlik qobiliyatlari namoyon bo'lgan, boshqalarga yordam berib, sahna ko'rinishini boshqarishga harakat qilgan bolalar ham ko'zga tashlandi. Bu jarayon ularda ijtimoiy hamkorlik va jamoaviy muhitga moslashuv ko'nikmalari shakllanganini bildiradi [4, 4].

O'z navbatida, nazorat guruhidagi bolalarda bunday tajriba bo'lmagani uchun, ular jamoaviy ijodiy topshiriqlarda (masalan, bog'cha bayramida chiqish tayyorlashda) nisbatan passivroq qatnashdi, ko'p hollarda faqat tarbiyachi ko'rsatmasini kutib bajarishdi. Bu ham eksperiment foydasiga ijobiy dalildir.

Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, drammatizatsiya mashg'ulotlari bolalarning o'ziga ishonchini ham oshirdi. Agar avval sahnaga chiqishdan uyalgan yoki xato qilishdan qo'rqib tortingan bolalar bo'lgan bo'lsa, tajriba oxiriga kelib ular auditoriya oldida chiqish qilishga odatlanishdi. Yoshiga mos ravishda, albatta, ba'zi ijrolar sodda ko'rinishda bo'lsa-da, muhim jihati – bolalar endi o'z fikrini erkin ifoda etishdan cho'chimay qo'yishdi. Ta'kidlash joizki, ijodiy muhitda bola har qanday yangicha harakati yoki g'oyasi maqto'v va qo'llab-quvvatlash bilan qarshi olinsa, u keyinchalik yanada dadilroq yangilikka intiladi [5, 123]. Bizning tajribada ham sahnalashtirish orqali olingan ijobiy his-tuyg'ular bolalarda ijodga nisbatan rag'bat va qiziqishni yanada kuchaytirdi.

O'tkazilgan eksperiment natijalari ilmiy manbalarda keltirilgan xulosalarni amaliy jihatdan tasdiqladi. Xususan, eronlik tadqiqotchilar S. Momeni va hamkorlarining 4–6 yoshli bolalarda ijodkorlikni rivojlantirish bo'yicha o'tkazgan tadqiqotida ham teatr-o'yin usullarini qo'llash bolalarning ijodiy fikrlash darajasini statistik jihatdan ishonarli darajada oshirganligi qayd etilgan ($p < 0.05$) [7, 624]. Dunyoda o'tkazilgan boshqa ko'plab tadqiqotlar ham ijodiy o'yin va drammatizatsiya metodlari bolalarning ijodkorligini oshirishda samarali vosita ekanini ko'rsatmoqda. Masalan, amerikalik pedagog N. Makkaslin ijodiy drama elementlarini dars jarayoniga kiritish kichik yoshdagi bolalarning faqat ijodkorligini emas, balki ijtimoiy ko'nikmalarini ham birdek rivojlantirishini tajribalar orqali ko'rsatib bergan [8, 58]. Xuddi shuningdek, turk tadqiqotchisi B. S. Celume boshchiligidagi tadqiqotda drama ta'limi olgan bolalar olmaganlarga nisbatan fikrlar ravonligi, moslashuvchanligi va original g'oya berish ko'rsatkichlari bo'yicha ancha yuqori natijalarga erishgani aniqlangan [7, 619]. Bizning tadqiqotimiz natijalari ham bu ilmiy xulosalarga hamohang bo'lib, sahnalashtirishga faol jalb etilgan bolalarda qisqa muddat ichida ko'plab ijodiy sifatlarining rivojlanishi kuzatildi.

Yuqoridagi natijalarni umumlashtirgan holda, sahnalashtirish faoliyatining maktabgacha yoshdagi bolalar uchun qator rivojlantiruvchi foydalari mavjudligini aytish mumkin. Eng avvalo, drammatizatsiya bolalarning tasavvurini boyitadi, ularga real hayot tajribalarini o'yin orqali qayta ishlash va yangi shaklda sinab ko'rish imkonini beradi. Ikkinchidan, sahnalashtirish bolalarni ijodiy fikrlashga undaydi – ular voqealarning alternativa rivojini tasavvur qilishga, obrazlar o'rtasidagi bog'lanishlarni o'ylab topishga harakat qilishadi. Uchinchidan, teatr o'yini



bolalarning og'zaki nutq va kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantiradi, chunki har bir dramatisatsiya jarayoni muloqot va ifodali harakatga asoslanadi. To'rtinchidan, bunday faoliyat bolalarda hamkorlik, jamoa bilan ishlash malakasini shakllantiradi, ularda tengdoshlariga hurmat va birdamlik tuyg'ularini tarbiyalaydi. Beshinchidan, eng muhim jihati – sahnalashtirish orqali bola ijod qilishdan zavqlanishni o'rganadi, ijodga qiziqishi ortadi. Bu esa uning keyingi ta'lim bosqichlarida ham innovatsion fikrlashga moyil, yangilikka intiluvchi shaxs bo'lib shakllanishiga zamin yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyaviy jarayonida sahnalashtirish faoliyatidan keng foydalanish zamon talabi hisoblanadi. Bolalar uchun teatr o'yini – bu nafaqat ko'ngilochar mashg'ulot, balki ular ongida yangi dunyo eshiklarini ochadigan, ularga o'z ijodiy "men"ini namoyon etish imkonini beradigan sehrli kalitdir. Shu "kalit" yordamida biz kelajak avlodning noyob iste'dod va ijodkorlik qirralarini kashf etishimiz va rivojlantirishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-01-30-yildagi Qarori. Maktabgacha ta'lim sohasiga davlat-xususiy sheriklikni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida (07/20-4581/0098-son).
2. Xasanova Sh. T. Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyat o'rgatish. Toshkent: Metodist nashriyoti, 2023.
3. Qodirov M., Qodirova S. Qo'g'irchoq teatri tarixi. Toshkent: Talqin, 2006.
4. Khasanova Sh., Zufarova L. "Development of Communicative Skills in Pre-School Children through Theater Games." International Scientific and Current Research Conferences, 2023-06, pp. 1–5.
5. Gubanova N. F. "Полихудожественные возможности игры-драматизации в формировании творчества дошкольников." Ежегодная международная научно-практическая конференция "Воспитание и обучение детей младшего возраста", 2012, pp. 127–131.
6. Momeni S., Khaki M., Amini R. "The Role of Creative Drama in Improving the Creativity of 4–6 Years Old Children." Journal of History Culture and Art Research, vol. 6, no. 1, 2017, pp. 617–626.
7. McCaslin N. Creative Drama in the Classroom and Beyond. 8th ed., Boston: Pearson, 2006.
8. Torrance E. Paul. Torrance Tests of Creative Thinking: Norms-Technical Manual (Vol. 1). Princeton, NJ: Personnel Press, 1974.
9. Комарова Т. С. Дети в мире творчества. Москва: Sfera, 2015.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.